



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

**SINFDAN TASHQARI TADBIRLAR ORQALI O'QUVCHILARNI
FAVQULODDA VAZIYATLARGA TAYYORGARLIGINI KOMPLEKS
RIVOJLANTIRISH**

Xolmatova Guzal Islomovna

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti

gozalxolmatova2@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur ishda sinfdan tashqari tadbirlar jarayonida o'quvchilarni favqulodda vaziyatlarga tayyorgarligini rivojlantirishning mazmuni pedagogik jihatdan asoslab berilgan. Maqolada sinfdan tashqari tadbirlarning ta'lim jarayonini to'ldiruvchi samarali vosita sifatidagi ahamiyati yoritilib, o'quvchilarda favqulodda vaziyatlarga doir nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, psixologik barqarorlik hamda ijtimoiy mas'uliyatni uyg'un holda shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Favqulodda vaziyatlarning turlari, ularning kelib chiqish sabablari va xavfsiz xatti-harakat qoidalariga oid nazariy bilimlar o'quvchilarning ongli munosabatini shakllantirishdagi roli ochib berilgan.

Kalit so'zlar. Favqulodda vaziyatlar, sinfdan tashqari tadbirlar, nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, psixologik barqarorlik, evakuatsiya mashqlari, birinchi tibbiy yordam, ijtimoiy mas'uliyat, fuqarolik burchi.

**КОМПЛЕКСНОЕ РАЗВИТИЕ ГОТОВНОСТИ УЧАЩИХСЯ К
ЧРЕЗВЫЧАЙНЫМ СИТУАЦИЯМ ПОСРЕДСТВОМ ВНЕУРОЧНОЙ
ДЕЯТЕЛЬНОСТИ**

Холматова Гузаль Исламовна

университет информационных технологий и менеджмента

gozalxolmatova2@gmail.com

Аннотация. В данной работе дается педагогическое обоснование содержания развития готовности учащихся к чрезвычайным ситуациям в процессе внеклассной деятельности. В данной работе дается педагогическое обоснование содержания развития готовности учащихся к чрезвычайным ситуациям в процессе внеклассной деятельности. В статье освещается значение внеклассной деятельности как эффективного дополняющего образовательный процесс инструмента, особое внимание уделяется гармоничному формированию у учащихся теоретических знаний, практических навыков, психологической устойчивости и социальной ответственности в отношении чрезвычайных ситуаций. Раскрыта роль теоретических знаний о видах чрезвычайных ситуаций,





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

причинах их возникновения и правилах безопасного поведения в формировании сознательного отношения учащихся.

Ключевые слова. Чрезвычайные ситуации, внеурочная деятельность, теоретические знания, практические навыки, психологическая устойчивость, эвакуационные упражнения, первая медицинская помощь, социальная ответственность, гражданский долг.

COMPREHENSIVE DEVELOPMENT OF EMERGENCY PREPAREDNESS
OF STUDENTS THROUGH EXTRACURRICULAR ACTIVITIES

Kholmatova Guzal Islamovna

University of Information Technologies and Management

Annotation. *In this work, the content of the development of emergency preparedness of students in the process of extracurricular activities is pedagogically justified. In this work, the content of the development of emergency preparedness of students in the process of extracurricular activities is pedagogically justified. The article highlights the importance of extracurricular activities as an effective tool that complements the educational process, paying special attention to the issues of theoretical knowledge, practical skills, psychological stability and the harmonious formation of social responsibility for emergencies in students. Theoretical knowledge of the types of emergencies, the reasons for their origin and the rules of safe behavior are revealed in the role of students in forming a conscious attitude.*

Keywords. *Emergencies, extracurricular activities, theoretical knowledge, practical skills, psychological stability, evacuation exercises, first aid, social responsibility, civic duty.*

Kirish. Bugungi kunda favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik masalasi ta'lim tizimining dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'quvchilarda favqulodda holatlarda to'g'ri va xavfsiz harakat qilish ko'nikmalarini shakllantirish muhim pedagogik vazifa sanaladi. Shu jarayonda sinfdan tashqari tadbirlar ta'lim jarayonini samarali to'ldiruvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu tadbirlar orqali o'quvchilarda nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy ko'nikmalar rivojlantiriladi. Shuningdek, ularning psixologik barqarorligi va ijtimoiy mas'uliyati mustahkamlanadi. Natijada o'quvchilarning favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik darajasi kompleks ravishda oshadi.

Asosiy qism. Sinfdan tashqari tadbirlar ta'lim jarayonini to'ldiruvchi samarali pedagogik vosita hisoblanadi. Ushbu tadbirlar orqali o'quvchilarda favqulodda vaziyatlarga oid nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalar uyg'un holda shakllantiriladi. Shu bilan birga, o'quvchilarning psixologik barqarorligi va stressli vaziyatlarda to'g'ri





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

qaror qabul qilish qobiliyati rivojlantiriladi. Natijada ularda ijtimoiy mas'uliyat va jamoaviy xavfsizlikni ta'minlashga yo'naltirilgan ongli munosabat shakllanadi.

Sinfidan tashqari tadbirlar mazmuni, avvalo, favqulodda vaziyatlarning turlari (tabiiy, texnogen va ijtimoiy), ularning kelib chiqish sabablari hamda bunday holarlarda xavfsiz xatti-harakat qoidalari haqidagi nazariy bilimlarni o'z ichiga oladi. Ushbu bilimlar o'quvchilarning favqulodda vaziyatlarni to'g'ri anglash va baholash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Mazkur jarayonda amaliy yo'naltirilgan faoliyat alohida ahamiyat kasb etadi. Evakuatsiya mashqlari, birinchi tibbiy yordam ko'rsatish, yong'in vaqtida to'g'ri harakat qilish bo'yicha mahg'ulotlar o'quvchilarda favqulodda vaziyatlarda tezkor va ratsional harakat qilish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Shuningdek, sinfdan tashqari tadbirlar o'quvchilarning psixologik tayyorgarligini rivojlantirishga yo'naltiriladi. Vaziyatli mashqlar va rol o'yinlari orqali o'quvchilarda stressga chidamlilik, o'zini boshqarish hamda favqulodda holatlarda ongli qaror qabul qilish qobiliyatlari rivojlanadi.

Bundan tashqari, mazkur tadbirlar jarayonida o'quvchilarda ijtimoiy mas'uliyat, jamoa bilan hamkorlikda harakat qilish, o'zaro yordam ko'rsatish madaniyati hamda fuqarolik burchi kabi qadriyatlar shakllantiriladi. Bu esa favqulodda vaziyatlarda nafaqat shaxsiy, balki jamoaviy xavfsizlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Sinfidan tashqari tadbirlar jarayonida o'quvchilarni favqulodda vaziyatlarga tayyorlash, avvalo, ularning ushbu soha bo'yicha zarur nazariy bilimlarga ega bo'lishini ta'minlashga qaratiladi. Nazariy bilimlar o'quvchilarda favqulodda vaziyatlarning mohiyatini anglash, xavfli holatlarni to'g'ri baholash va ongli xatti-harakatlarni rejalashtirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur nazariy bilimlar mazmuniga, eng avvalo, favqulodda vaziyatlar tushunchasi, ularning turlari va tasnifi kiradi. O'quvchilarga tabiiy (zilzila, suv toshqini, sel, bo'ron), texnogen (yong'in, portlash, avariya) va ijtimoiy xavfli holatlar haqida tizimli ma'lumotlar beriladi. Bu bilimlar o'quvchilarda turli xavf manbalarini farqlash va ularning oqibatlarini oldindan anglash imkonini yaratadi.

Shuningdek, nazariy tayyorgarlik doirasida favqulodda vaziyatlarning kelib chiqish sabablari va rivojlanish bosqichlari o'rganiladi. O'quvchilar xavfli vaziyatlarning qanday sharoitlarda yuzaga kelishi, ularning inson hayoti va sog'ligiga ta'siri hamda moddiy zarar oqibatlari haqida bilimga ega bo'ladilar.

Nazariy bilimlar mazmunining muhim tarkibiy qismi favqulodda vaziyatlarda xavfsiz xatti-harakat qoidalarini o'z ichiga oladi. Bu jarayonda evakuatsiya qoidalari, himoyalalanish usullari, xavfsizlik belgilarining mazmuni, shuningdek, favqulodda vaziyatlarda davlat va jamiyat tomonidan belgilangan umumiy talablar tushuntiriladi.

Bundan tashqari, o'quvchilarga fuqaro muhofazasi tizimi, favquodda vaziyatlarda mas'ul bo'lgan xizmatlar faoliyati hamda aholining huquq va majburiyatlari to'g'risida





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

nazariy bilimlar beriladi. Ushbu bilimlar o'quvchilarda favqulodda vaziyatlarga nisbatan ongli munosabat va fuqarolik mas'uliyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Sinfidan tashqari tadbirlar jarayonida o'quvchilarni favqulodda vaziyatlarga tayyorlashda amaliy ko'nikmalarni shakllantirish muhim pedagogik vazifa hisoblanadi. Amaliy ko'nikmalar favqulodda holatlarda o'quvchilarning nazariy bilimlarni real vaziyatda qo'llay olish, tezkor va ratsional xatti-harakatlarni amalga oshirish imkonini beradi.

Mazkur jarayonda, avvalo, o'quvchilarda favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish algoritmlarini bajarish ko'nikmalarini shakllantiradi. Jumladan, evakuatsiya yo'nalishlari bo'yicha harakatlanish, yig'ilish joylariga yetib borish, jamoa bilan uyg'un va tartibli harakat qilish amaliy mashg'ulotlar orqali o'rgatiladi.

Evakuatsiya mashqlari. Evakuatsiya mashqlari o'quvchilarni favqulodda vaziyatlarda, xususan yong'in, zilzila yoki boshqa xavfli holatlarda maktab binosidan tartibli va xavfsiz chiqib ketishga tayyorlashga qaratilgan muhim amaliy faoliyat hisoblanadi. Ushbu mashqlarning asosiy mazmuni o'quvchilarda evakuatsiya jarayonining aniq ketma-ketligini anglash va uni amalda to'g'ri bajarish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.


Mashq boshlanishidan oldin o'quvchilarga evakuatsiya yo'laklari, zaxira chiqish eshiklari hamda yig'ilish joylarining joylashuvi tushuntiriladi. Har bir sinf uchun harakatlanish yo'nalishi oldindan belgilab olinadi va mas'ul shaxslar tayinlanadi. So'ng yong'in yoki favqulodda vaziyat signalini berish orqali mashq boshlanadi. Signal eshitilishi bilan o'quvchilar vahimaga berilmasdan, o'qituvchi yoki mas'ul shaxs ko'rsatmalariga amal qilgan holda belgilangan yo'laklar orqali binoni tark etadilar.

Evakuatsiya jarayonida o'quvchilarga yugurmaslik, bir-birini itarmaslik, tartibni saqlash hamda nogironligi yoki qiynalayotgan tengdoshlariga yordam berish kabi qoidalar amalda ko'rsatib beriladi. Yig'ilish joyiga yetib borgach, o'quvchilarning to'liq jamlangani tekshiriladi va xavfsizlik holati baholanadi.

Mashq yakunida evakuatsiya jarayoni tahlil qilinadi. Yo'l qo'yilgan xatolar, kechikish sabablari va tartib buzilish holatlari muhokama qilinadi hamda ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar beriladi. Natijada o'quvchilarda favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish algoritmi, jamoa bilan hamkorlikda ishlash va o'z xavfsizligini ta'minlash ko'nikmalari mustahkamlanadi.

Shuningdek, sinfdan tashqari tadbirlar davomida o'quvchilarda yong'in vaqtida xavfsiz harakat qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu jarayonda yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilish, tutundan himoyalanih, yong'in o'chirish vositalaridan to'g'ri foydalanish bo'yicha amaliy mashqlar bajariladi.

Yong'in xavfsizligi mashqlari o'quvchilarni yong'in sodir bo'lgan paytda to'g'ri, tezkor va xavfsiz harakat qilishga o'rgatishga qaratilgan amaliy mashg'ulotlar majmuasidir. Ushbu mashqlarning asosiy mazmuni o'quvchilarda yong'in vaqtida hayot





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

va sog'liqni saqlashga qaratilgan xatti-harakatlarni shakllantirish hamda himoya vositalaridan oqilona foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishdan iborat.

Mashg'ulotlar davomida o'quvchilarga tutun va olovdan himoyalashning asosiy usullari tushuntiriladi. Jumladan, pastdan egilib yoki emaklab harakatlanish, nam mato orqali nafas olish, olov tarqalgan hududdan xavfsiz masofani saqlash kabi qoidalar amaliy tarzda ko'rsatib beriladi. Bu o'quvchilarning tutunli muhitda to'g'ri harakat qilishini ta'minlaydi.

Shuningdek, yong'in o'chirish vositalaridan foydalanish bo'yicha mashqlar o'tkaziladi. O'quvchilarga yong'in o'chirgich, suv va ko'pikdan foydalanish tartibi, ularni qaysi holatlarda qo'llash mumkinligi amaliy mashqlar orqali o'rgatiladi. Ushbu jarayonda xavfsizlik qoidalariga qat'iy rioya qilishga alohida e'tibor qaratiladi.

"Tutun ostida harakat" simulyatsiyasi orqali o'quvchilar cheklangan ko'rinish sharoitida xavfsiz yo'nalishni aniqlash, belgilar va devor bo'ylab harakatlanish ko'nikmalarini egallaydilar. Mashg'ulot yakunida bajarilgan harakatlar tahlil qilinib, yo'l qo'yilgan xatolar muhokama etiladi. Natijada o'quvchilarda yong'in xavfsizligi qoidalarini amalda qo'llash, xavfli vaziyatni baholash va o'z hayotini himoyalash ko'nikmalari mustahkamlanadi.

Amaliy ko'nikmalar mazmunining muhim tarkibiy qismi birinchi tibbiy yordam ko'rsatish malakalarini shakllantirishdan iborat. O'quvchilar jarohatlangan shaxsga dastlabki yordam ko'rsatish, qon ketishini to'xtatish, bog'lam qo'yish, hushsiz holatda to'g'ri yordam berish kabi amaliy harakatlarni bajarishni o'rganadilar.

Bundan tashqari, favqulodda vaziyatlarda shaxsiy va jamoaviy himoya vositalaridan foydalanish ko'nikmalari ham rivojlantiriladi. O'quvchilarga niqob, respirator, himoya kiyimlari kabi vositalardan foydalanish tartibi amaliy mashg'ulotlar orqali tushuntiriladi.

Shu bilan birga, vaziyatli mashqlar va rol o'yinlari orqali o'quvchilarda favqulodda vaziyatlarda tezkor qaror qabul qilish, vaziyatni baholash va o'z harakatlarini muvofiqlashtirish ko'nikmalari shakllantiriladi.

Favqulodda vaziyatlarda rol o'yinlar. Favqulodda vaziyatlarda rol o'yinlari o'quvchilarni real hayotda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavfli holatlarga psixologik va amaliy jihatdan tayyorlashga xizmat qiladi. Ushbu mashg'ulotlarning asosiy mazmuni o'quvchilarda tezkor qaror qabul qilish, o'zini boshqarish va jamoa bilan hamkorlikda harakat qilish ko'nikmalarini rivojlantirishdan iborat.

Rol o'yinlari jarayonida zilzila yoki boshqa favqulodda vaziyatlar sun'iy tarzda modellashtiriladi. O'quvchilar kichik guruhlariga bo'linib, belgilangan vaziyatga mos harakat qilishlari talab etiladi. Bu jarayonda xavfsiz joyni aniqlash, jarohatlanganlarga yordam ko'rsatish va mas'uliyatni o'zaro taqsimlash kabi vazifalar bajariladi.

Mashqlarda "qutqaruvchi", "jarohatlangan", "kuzatuvchi" kabi rollar taqsimlanib, har bir ishtirokchi o'z roliga mos xatti-harakatlarni amalga oshiradi. Ushbu yondashuv o'quvchilarning favqulodda vaziyatni turli nuqtai nazardan baholashiga va empatiya





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

hissini rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, o'quvchilar stressli vaziyatda o'z his-tuyg'ularini nazorat qilishni o'rganadilar.

Mashg'ulot yakunida bajarilgan harakatlar va qabul qilingan qarorlar muhokama qilinadi, to'g'ri va noto'g'ri strategiyalar tahlil etiladi. Bu o'quvchilarda vaziyatni tez va to'g'ri baholash, kelajakda xatolarga yo'l qo'ymaslik ko'nikmalarini shakllantiradi. Natijada rol o'yinlari o'quvchilarning psixologik barqarorligi va favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik darajasini sezilarli darajada oshiradi.

Sinfdan tashqari tadbirlar jarayonida o'quvchilarni favqulodda vaziyatlarga tayyorlashda psixologik barqarorlikni rivojlantirish muhim pedagogik va psixologik vazifa hisoblanadi. Psixologik barqarorlik favqulodda vaziyatlarda shaxsning ruhiy holatini boshqara olish, stress va qo'rquv ta'sirida to'g'ri qaror qabul qilish hamda ratsional xatti-harakatlarni amalga oshirish qobiliyatini ifodalaydi.

Mazkur jarayonda o'quvchilarda favqulodda vaziyatlar bilan bog'liq psixologik holatlar – qo'rquv, vahima, xavotir va hissiy zo'riqishning mohiyati to'g'risida tushunchalar shakllantiriladi. Bu o'quvchilarga o'z hissiy holatini anglash va uni boshqarish imkonini beradi.

Sinfdan tashqari tadbirlar davomida vaziyatli mashqlar va rol o'yinlari orqali o'quvchilarda favqulodda holatlarda o'zini tutish, vahimaga berilmaslik va o'z harakatlarini nazorat qilish ko'nikmalari rivojlantiriladi. Ushbu mashg'ulotlar o'quvchilarning favqulodda vaziyatlarga psixologik moslashuvchanligini oshiradi.

Shuningdek, psixologik treninglar orqali o'quvchilarda stressga chidamlilik, tezkor fikrlash va ongli qaror qabul qilish qobiliyatlari shakllantiriladi. Nafas mashqlari, diqqatni jamlash usullari va o'zini boshqarish texnikalaridan foydalanish o'quvchilarning ruhiy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, sinfdan tashqari tadbirlar o'quvchilarda ijobiy psixologik muhitni yaratishga yo'naltiriladi. Jamoa bilan hamkorlikda faoliyat olib borish, o'zaro ishonch va qo'llab-quvvatlash muhitini shakllantirish favqulodda vaziyatlarda psixologik barqarorlikni ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi.

Sinfdan tashqari tadbirlar jarayonida o'quvchilarni favqulodda vaziyatlarga tayyorlash faqatgina nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish bilan cheklanmay, balki ularda ijtimoiy mas'uliyatni uyg'un holda rivojlantirishni ham taqozo etadi. Ijtimoiy mas'uliyat favqulodda vaziyatlarda shaxsning nafaqat o'z xavfsizligi, balki atrofdagilarning hayoti va sog'ligi uchun ham mas'uliyatni his etishi bilan tavsiflanadi.

Mazkur jarayonda o'quvchilarda favqulodda vaziyatlarda jamoa manfaatlarini ustuvor qo'yish, umumiy xavfsizlik qoidalariga rioya etish hamda o'zaro hamkorlikda harakat qilish zarurligi to'g'risida tushunchalar shakllantiriladi. Bu tushunchalar o'quvchilarning favqulodda vaziyatlarga nisbatan ongli va mas'uliyatli munosabatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Sinfdan tashqari tadbirlar davomida jamoaviy mashqlar, guruhli vazifalar va vaziyatli rolli o'yinlar orqali o'quvchilarda o'zaro yordam ko'rsatish, yetakchilik va bo'ysunish





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

madaniyati, shuningdek, mas'uliyatli qaror qabul qilish ko'nikmalari shakllantiriladi. Ushbu faoliyat turlari favqulodda vaziyatlarda jamoaning har bir a'zosi muhim ahamiyatga ega ekanini anglashga yordam beradi.

Bundan tashqari, ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirish jarayonida o'quvchilarga favqulodda vaziyatlarda davlat va jamoat tuzilmalari, qutqaruv xizmatlari hamda fuqarolarning o'zaro hamkorligi to'g'risida ma'lumotlar beriladi. Bu esa o'quvchilarda fuqaro sifatida burch va majburiyatlarni anglash, jamiyat xavfsizligini ta'minlashda faol ishtirok etish ehtiyojini shakllantiradi.

Shuningdek, sinfdan tashqari tadbirlar davomida ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalar, targ'ibot ishlari va ko'ngillilik faoliyatini tashkil etish orqali o'quvchilarda favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlikni ijtimoiy mas'uliyat bilan uyg'un holda amalga oshirishga bo'lgan ijobiy munosabat rivojlantiriladi.

Xulosa. Sinfdan tashqari tadbirlar davomida o'quvchilarni favqulodda vaziyatlarga tayyorgarligini rivojlantirish mazmuni nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, psixologik barqarorlik va ijtimoiy mas'uliyatni uyg'un holda shakllantirishga qaratilgan bo'lib, o'quvchilarning favqulodda vaziyatlarda ratsional va xavfsiz xatti-harakatlarini ta'minlashga xizmat qiladi.


Sinfdan tashqari tadbirlar davomida shakllantiriladigan amaliy ko'nikmalar o'quvchilarning favqulodda vaziyatlarda mustaqil, ongli va xavfsiz harakat qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Bu ko'nikmalar ularning hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi va favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik darajasini oshiradi.

Sinfdan tashqari tadbirlar davomida psixologik barqarorlikni rivojlantirish o'quvchilarning favqulodda vaziyatlarda hissiy zo'riqishlarga bardosh bera olish, vaziyatni ongli baholash va ratsional xatti-harakatlarni amalga oshirish qobiliyatini oshiradi. Bu esa ularning favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik darajasini kompleks ravishda rivojlantirishga xizmat qiladi.

Sinfdan tashqari tadbirlar davomida o'quvchilarni favqulodda vaziyatlarga tayyorgarligini rivojlantirishda ijtimoiy mas'uliyatni uyg'un holda shakllantirish ularning favqulodda vaziyatlarda jamoaviy manfaatlarini inobatga olgan holda ongli, hamkorlikka asoslangan va mas'uliyatli xatti-harakatlarni amalga oshirish qobiliyatini rivojlantiradi. Bu jarayon o'quvchilarning shaxsiy va ijtimoiy xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 29.04.2023 yildagi 171-son.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

2.Saidova G.E., "Sinfdan tashqari ishlami tashkil etishda innovatsion usullardan foydalanish" -Buxoro. Monografiya. -b.100

3.Islamovna, K. G. (2025). Preparing Elementary Students for Emergencies – As a Pedagogical Problem. Spanish Journal of Innovation and Integrity, 40, 169–172. Retrieved from <https://sjii.es/index.php/journal/article/view/329>

4. Xolmatova , G. (2023). DUNYO ZAMONAVIY TA'LIMIDA MUSTAQIL O'QUV FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI. Interpretation and Researches, 1(1). извлечено от <https://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/818>

